

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI**  
**“QISHLOQ INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH”,**  
**“QISHLOQ JOYLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH”**  
**VA “QISHLOQ JOYLARNI KOMPLEKS**  
**RIVOJLANTIRISH” BIRLASHTIRILGAN LOYIHALARNI**  
**AMALGA OSHIRISH GURUHI**

**N I Z O M I**

(yangi tahrirda)

O‘zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya vazirining  
2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi  
\_\_\_\_-sonli buyrug‘iga  
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi  
huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish”,  
“Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” va “Qishloq  
joylarni kompleks rivojlantirish” birlashtirilgan  
loyihalarni amalga oshirish guruhi  
NIZOMI**

**I bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish”, “Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” va “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” birlashtirilgan loyihalarni amalga oshirish guruhining (keyingi o‘rinlarda – BLAOG) maqomi, vazifalari, funksiyalari, vakolatlari, huquq va majburiyatlari hamda tashkiliy asoslarini belgilaydi.

2. BLAOG O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 16-iyuldagi PQ-3857-sonli, “Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4898-sonli (keyingi o‘rinlarda - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4898-sonli qarori), “Islom taraqqiyot banki va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokida “Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 18-sentabrdagi PQ-5246-sonli (keyingi o‘rinlarda - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-sentabrdagi PQ-5246-sonli qarori) hamda “Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” (2-bosqich) loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 28-martdagi PQ-141-sonli Qarorlariga (keyingi o‘rinlarda - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-martdagi PQ-141-sonli qarori) muvofiq, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi va Jahon banki Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (keyingi o‘rinlarda – XTU) o‘rtasida imzolangan 6502-UZ-sonli, O‘zbekiston Respublikasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (keyingi o‘rinlarda – OIIB) o‘rtasida imzolangan L-0328A-UZB-sonli, O‘zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki (keyingi o‘rinlarda – ITB) o‘rtasida imzolangan 3903-UZB-sonli, O‘zbekiston Respublikasi va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda –

OPEK) o‘rtasida imzolangan 14901P-sonli, O‘zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki o‘rtasida imzolangan UZB-1038-sonli qarz bitimlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 39-sonli buyrug‘i, 2021-yil 27-sentabrdagi 02-02/1-2401-sonli yig‘ilish bayoni va 2023-yil 31-avgustdagi 177-sonli buyrug‘i asosida tashkil qilingan.

3. BLAOG faoliyat muddati cheklanmagan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari bilan belgilangan loyihalarni amalga oshirish muddatiga tashkil etilgan.

4. BLAOGni tugatish yoki qayta tashkil etish (birlashtirish, bo‘lish, qo‘shish yoki o‘zgartirish) Vazirlik buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. BLAOGning asosiy maqsadi XTU, OIIB, ITB va OPEKning O‘zbekiston Respublikasida moliyalashtirilayotgan loyihalarining o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi orqali aholining turmush darajasini va madaniyatini yuksaltirish.

6. BLAOG o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi va XTU, OIIB, ITB va OPEK o‘rtasidagi loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan qarz bitimlari va dastur kelishuvlariga, Vazirlikning buyruqlariga, ushbu nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

7. BLAOG Vazirlikka bo‘ysunuvchi va uning tasarrufida tashkil etiluvchi yuridik shaxs bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan hamda o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil va yig‘ma balanslariga, o‘z aylanma mablag‘lariga hamda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida milliy va xorijiy valyuta hisob raqamlariga ega.

8. BLAOGning tarkibiy tuzilmasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlikning buyruqlariga muvofiq, o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

9. BLAOGning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish”, “Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” va “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” birlashtirilgan loyihalarni amalga oshirish guruhi;

qisqartmasi – Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Birlashtirilgan loyihalarni amalga oshirish guruhi;

b) rus tilida:

to‘liq nomi – Объединенная группа реализации проектов «Развитие сельской инфраструктуры», «Устойчивое развитие сельской местности» и «Комплексное

развитие сельской местности» при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан.

qisqartmasi – Объединённая группа реализации проектов при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан.

d) ingliz tilida:

to‘liq nomi – “Rural Infrastructure Development”, “Sustainable Rural Development” and “Integrated rural development” Joint Projects Implementation Unit under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan.

qisqartmasi – Joint Projects Implementation Unit under the Ministry of Economy Finance of the Republic of Uzbekistan.

10. BLAOGning joylashgan joyi: 100115, Toshkent shahri Chilonzor tumani Muqimiy ko‘chasi 15-A uy.

## **II bob. BLAOG tuzilmasi**

11. BLAOG tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4898-sonli qaroriga asosan yuridik shaxs tashkil qilmagan holda Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari uchun Namangan shahrida va Sirdaryo hamda Jizzax viloyatlari uchun Jizzax shahrida hududlararo guruhlarni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-sentabrdagi PQ-5246-sonli qaroriga asosan yuridik shaxs tashkil qilmagan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati uchun Urganch shahrida, Buxoro hamda Navoiy viloyatlari uchun Buxoro shahrida hududlararo guruhlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-martdagi PQ-141-sonli qaroriga asosan yuridik shaxs tashkil qilmagan holda Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida hududiy guruhlari kiradi.

Shunga asosan, BLAOG tashkiliy tuzilmasiga (tizimiga) quyidagilar kiradi:

BLAOG markaziy apparati;

hududlararo loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha guruhlar:

Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari uchun Namangan shahrida;

Sirdaryo hamda Jizzax viloyatlari uchun Jizzax shahrida;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati uchun Urganch shahrida;

Buxoro hamda Navoiy viloyatlari uchun Buxoro shahrida;

Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari markazlarida tashkil etiladi.

## **III bob. BLAOG ning vazifa va funksiyalari**

12. Quyidagilar BLAOG ning asosiy vazifalari hisoblanadi:

loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta‘minlash;

XTU, OIIB, ITB, OPEK hamda O‘zbekiston Respublikasidagi manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar hokimliklari, konsalting kompaniyalari va ekspertlar o‘rtasida qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq aholi punktlarining me‘moriy qiyofasini tubdan yangilash ishlarini muvofiqlashtirish;

hududlarni kompleks rivojlantirish, shu jumladan, qishloqlardagi ichimlik suv va kanalizatsiya xizmatlariga innovatsion alternativ modellar kiritish orqali ulardan foydalanishni kengaytirish uchun mavjud ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini tiklash ishlarini muvofiqlashtirish;

energiya samaradorligini oshirish uchun jamoat binolarini modernizatsiyalash, ijtimoiy infratuzilmani tiklash, uchinchi darajali yo'llar, ko'chalarni va piyodalar uchun yo'llarni tiklash ishlarini muvofiqlashtirish;

yo'llarni drenajlash (quritish) va qishloq yo'llarining toshqinga chidamliligini oshirish, 10 metrgacha uzunlikdagi ko'priklarni tiklash va qurish ishlarini muvofiqlashtirish;

ko'chalarni yoritish tizimini modernizatsiyalash, jamoat joylarini takomillashtirish, qattiq chiqindilarni utilizatsiya qilish ishlarini muvofiqlashtirish;

jamoat obyektlarini kichik miqyosda qurish, ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish, simsiz internet xizmatlari bilan ta'minlash uchun antennalarni o'rnatish ishlarini muvofiqlashtirish;

avtobus turargohlari va bekatlarini qurish va tiklash hamda energiya ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish yuzasidan loyihalarini ishlab chiqib, muvaffaqiyatli amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

dasturlarni amalga oshirish jarayonida xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlar bilan birgalikda hamkorlik qilishdagi muhim masalalarni, yuzaga kelgan mavjud muammolarni hal qilish borasida yuqori turuvchi tashkilot va u orqali Vazirlar Mahkamasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takliflar kiritish;

amaldagi qonunchilikda belgilangan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

13. BLAOG o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasidagi vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar hokimliklari va tegishli ekspluatatsiya va obodonlashtirish korxonalari bilan XTU, OIIB, ITB va OPEK maslahatchilari (konsultant) o'rtasidagi dasturlarni amalga oshirish bilan bog'liq masala va muammolarni hal etilishida tanlov (tender) komissiyasi ijro faoliyatini ta'minlash;

loyihalarni amalga oshirish faoliyatini monitoringini olib borish, ishlarning samaradorligini aniqlash hamda zarur hollarda Vazirlikka va XTU, OIIB, ITB va OPEKga muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqib tegishli choralar ko'rish uchun kiritish;

o'rnatilgan tartibda loyihalarni amalga oshirish va xaridning yillik rejalarini tayyorlash hamda ularni yangilash, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, XTU, OIIB, ITB, OPEK va shuningdek, boshqa manfaatdor idoralarga loyihalar doirasida moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar, barcha ko'rsatkichlar bo'yicha muntazam ravishda hisobotlar berib borilishini ta'minlash;

belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, ularning ekspertizadan o'tkazilishini tashkillashtirish;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, XTU, OIIB, ITB va OPEK talablariga to‘liq rioya etgan holda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan konsalting xizmatlari, pudrat faoliyati va xaridlar bo‘yicha tender savdolarini tashkil etish;

qurilishi tugallangan obyektlarning foydalanishga topshirilishini va uskunalarni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlarga berilishini tashkil qilish;

har yili moliyaviy istiqbolli rejalarni tayyorlash, loyihalar mablag‘laridan foydalanish monitoringini yuritish, tovar yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilish uchun mablag‘larning yetarli darajada mavjudligini ta‘minlash maqsadida qarz mablag‘larini to‘ldirib borish uchun buyurtmalarni o‘z muddatlarida rasmiylashtirish;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, XTU, OIIB, ITB va OPEK talablariga muvofiq, loyihalar bo‘yicha buxgalterlik hisobi va hisobotlarni yuritish;

loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha har yili XTU, OIIB, ITB va OPEK standartlariga mos keladigan moliyaviy audit tekshiruvi o‘tkazish;

atrof-muhitni ijtimoiy kafolatlangan himoyalash bo‘yicha loyihalarda ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar bajarilishini nazorat qilish;

BLAOGga malakali kadrlarni ishga qabul qilish, xodimlarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

loyihalarda ishtirok etayotgan chet ellik mutaxassislarning kirish vizalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish va muddatini uzaytirish ishlarini amalga oshirish;

loyihani amalga oshirish doirasida direktiv organlar hamda Vazirlikning topshiriq va ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajarish;

amaldagi qonunchilikda belgilangan boshqa funksiyalarni amalga oshirish.

#### **IV bob. BLAOGning huquq va majburiyatlari**

14. BLAOG o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq, o‘z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasi hududida milliy va xorijiy valyutaga ega hisoblarini, tijorat banklarida maxsus depozit hisoblarini ochish;

XTU, OIIB, ITB, OPEK va loyihalarni amalga oshirishda qatnashayotgan boshqa tashkilotlar bilan doimiy aloqalarda bo‘lish va muloqot o‘rnatib ular bilan birga muzokaralarda ishtirok etish;

o‘z faoliyatini amalga oshirishda zarur ma‘lumotlarni tegishli vazirliklar, idoralar, shuningdek, loyihalar amalga oshirilayotgan viloyatlar va shaharlardagi hokimliklar hamda tashkilotlardan belgilangan tartibda so‘rab olish;

loyihalarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha belgilangan tartibda yig‘ilishlar chaqirish va o‘tkazish, ularda ishtirok etish uchun vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarning mutaxassislarini jalb qilish;

jihozlar, uskunarlar, moddiy boyliklar, ishlar va xizmatlar uchun kontraktlarga asosan markazlashgan holda haq to‘lash maqsadida moliyaviy mablag‘larning ma‘lum qismini (XTU, OIIB, ITB va OPEKning qarz mablag‘lari, O‘zbekiston Respublikasi budjeti va

viloyatlar hokimliklarining, shuningdek, korxonalar va tashkilotlarning moliyalashtirishdagi ulushi sifatidagi mablagʻlar) markazlashtirish;

mahalliy boshqaruv vakillari, mahalla instituti, aholi bilan ishlash va jamoatchilik, gender tengligi, majburiy mehnatga jalb qilmaslik hamda boshqa shu kabi masalalarda ilgʻor xorijiy tajribani qoʻllash, bunda xalqaro ekspertlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar koʻmagidan foydalanish;

xoʻjalik yuritish faoliyatini ushbu nizomda koʻzda tutilgan maqsadlar va vazifalarga yoʻnaltirilgan Oʻzbekiston Respublikasidagi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlarini amalga oshirish;

BLAOGning qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlari ham mavjud.

15. BLAOG ning bajarayotgan vazifalariga muvofiq, quyidagi majburiyatlari mavjud:

loyihalarni amalga oshirish uchun jalb qilingan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish;

XTU, OIIB, ITB va OPEK tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish boʻyicha qarz, loyiha bitimlarida koʻrsatilgan va bevosita jalb qilingan idoralar oldidagi majburiyatlarni oʻz muddatlarida va sifatli bajarish choralarini koʻrish;

BLAOG ning qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlari ham mavjud.

#### **V bob. BLAOGning mulki**

16. BLAOG oʻz moliyaviy mablagʻlari va boshqa mulki, XTU, OIIB, ITB va OPEKning qarz mablagʻlari, tender hujjatlarini sotishdan tushgan mablagʻlar, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga shakllantirilgan, mustaqil mulkiga ega.

BLAOGning mulki bahosi mustaqil balansida aks etgan asosiy vositalar va aylanma mablagʻlar, shuningdek, boshqa boyliklardan iborat.

BLAOGning mulki amaldagi qonunchilikka muvofiq, unga toʻliq xoʻjalik yuritish huquqlari bilan tegishlidir.

Mulkni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

Oʻzbekiston Respublikasi dasturlarini amalga oshirish moliyaviy mablagʻlari, mutanosib ravishdagi ulushlari;

XTU, OIIB, ITB va OPEK tomonidan ajratilgan qarz va grant mablagʻlari;

tender hujjatlarini sotishdan tushgan mablagʻlar;

Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

#### **VI bob. BLAOG faoliyatini boshqarish**

17. BLAOG Vazirlik tomonidan tayinlanadigan direktor tomonidan boshqariladi.

BLAOG direktori XTU, OIIB, ITB, OPEK hamda Oʻzbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan kelishilgan holda, Vazirlik tomonidan tayinlanadi va vazifasidan ozod qilinadi.

BLAOGning loyiha menejerlari XTU, OIIB, ITB, OPEK hamda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan kelishilgan holda, o'rnatilgan tartibda BLAOG direktori tomonidan ishga qabul qilinadi va lavozimidan ozod qilinadi.

18. BLAOG direktori quyidagi huquqlarga ega:

BLAOG faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish;  
ishonchnomasiz BLAOG nomidan harakat qilish, uning manfaatlarini barcha idoralar, korxonalar, firmalar va tashkilotlarda himoya qilish;

BLAOGning mulkini tasarruf etish;  
shartnomalarni, jumladan, mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;  
ishonchnomalarni berish, banklarda hisob raqamlarini ochish va BLAOGning mablag'larini tasarruf etish;

BLAOG apparati xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy buyruqlar chiqarish, topshiriq va ko'rsatmalar berish;

Vazirlik bilan kelishgan holda BLAOG xodimlarni shtatlar jadvalini va ish haqi miqdorini belgilash;

BLAOG direktori qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarga ham ega.

19. BLAOG direktorining quyidagi majburiyatlari mavjud:

BLAOGning faoliyatini tegishli qo'llanmalarga asosan olib borish;

BLAOG doirasida moliyaviy operatsiyalarning, moddiy va moliyaviy resurslarning samarali hamda foydali qo'llanilishini ta'minlash va resurslarni yo'qotish risklarini kamaytirish choralarini ko'rish;

BLAOG xarid tadbirlarini nazorat qilish, barcha turdagi shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishini va pudratchilar tomonidan shartnomada keltirilgan majburiyatlarni bajarilishini monitoring uchun zarur vositalarni mavjudligini ta'minlash;

BLAOG direktorining qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlari ham mavjud.

20. BLAOGning direktori guruh zimmasiga yuklatilgan vazifalarning o'z vaqtida sifatli bajarilishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq davlat sirini saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

21. BLAOG direktori quyidagilar uchun mas'ul:

Vazirlik tomonidan me'yoriy talablar asosida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatida bajarish;

BLAOG faoliyatini samarali va belgilangan talablar asosida olib borishi uchun barcha tegishli chora tadbirlarni amalga oshirish;

ushbu nizom va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni sifatli va o'z muddatida bajarish, shuningdek, BLAOG faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

Vazirlik bilan kelishgan holda, BLAOG tarkibiy tuzilmasini, xodimlar shtat jadvalini va ish haqi miqdorlarini tasdiqlash;

amalga oshirilayotgan loyihalar va dasturlarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rish;



22. BLAOG direktori o‘rinbosari quyidagilarga mas‘ul:

BLAOG direktori tomonidan me‘yoriy talablar asosida berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatida bajarish;

BLAOG faoliyatini samarali va belgilangan talablar asosida olib borishi uchun barcha tegishli chora tadbirlarni amalga oshirish ishlarini tashkil etish;

ushbu nizom va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni sifatli va o‘z muddatida bajarish, shuningdek, BLAOG faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rish ishlarini tashkil etish;

amalga oshirilayotgan loyihalar va dasturlarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash choralari ko‘rish ishlarini tashkil etish;

### **VII bob. BLAOGning hisob va hisoboti**

23. BLAOG o‘z ish faoliyati davomida tezkor va buxgalterlik hisobini yuritadi, Statistika agentligi, XTU, OIIB, ITB va OPEK tomonidan tasdiqlangan shakllar va hajmlarda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari hamda XTU, OIIB, ITB va OPEK nizomida belgilangan muddatlarda buxgalterlik va statistika hisobotlarini taqdim etadi.

24. BLAOG tomonidan mablag‘lardan foydalanishini va uning xo‘jalik-moliyaviy faoliyati natijalarini ichki va tashqi auditorlik idoralari nazorat qiladi.

25. BLAOG faoliyatini tekshirish – yuqori turuvchi tashkilotlar, nazorat qiluvchi organlar va boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

### **VIII bob. BLAOGning javobgarligi**

26. BLAOG zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishi, soliq va ish haqi to‘lovlari o‘z vaqtida to‘lanishi, mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlar qondirilishi, bevosita loyihani boshqarish bilan bog‘liq ehtiyojlar uchun pul mablag‘lari o‘tkazilishi, o‘zining xatti-harakatlari bilan BLAOGga yetkazilgan zarar, jumladan, BLAOGga berilgan davlat mulki yo‘qotilgan holat uchun ham qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

27. BLAOG o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulklar doirasida javobgar bo‘ladi.